O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI QIZIRIQ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

190800, Qiziriq tumani, Ibn-Sino ko`chasi, 13-uy, tel:0(376)3591339, fax: 0(376)3591575, qiziriq_t1@exat.uz

2024 - yil 9 - yanvar 3-8-113-Q/24 Qiziriq tuman hokimligi

Qiziriq tumani “Rabotak” mahallasi hududidagi “A.Qahhor” ko‘chasiga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori talablari ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qiziriq tumani Ichki ishlar bo‘limining 2023-yil 27-fevraldagi tuman Yo‘llardan foydalanish KDM rahbari nomiga yozgan 24/265-sonli xati va tuman Yo‘llardan foydalanish KDM direktorining joriy yil 26-fevral kuni tuman hokimligiga yozgan 09-16-5/53-sonli, tumanning “Rabotak” mahallasi hududidagi “A.Qahhor” ko‘chasining kirish joyiga, dehqon bozorga xavfsiz kirib chiqishni ta’minlash maqsadida, 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida xatlari inobatga olinsin.

2. Tumanning “Rabotak” mahallasi hududidagi “A.Qahhor” ko‘chasining kirish joyiga, dehqon bozorga xavfsiz kirib chiqishni ta’minlash maqsadida 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

3. Tuman “Yo‘llardan foydalanish” KDM (O.Nazarov)ga;

Mazkur hududga belgilangan tartibda yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman IIB YHXB (F.Ergashev)ga;

Ushbu yo‘l belgisi o‘rnatilishini hamda yo‘l belgisi o‘rnatilgan hududda transport vositalarining harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror tuman “Taraqqiyot” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Qo‘ziyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Sh.A.Rajabov**